




“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.



	Özbək dilində ibrani adlari	
20	Rəxşanə BABAZADƏ, Mustafa Zəririn “Yüz hədis və yüz hekayə” əsərində məsdər	175
21	Aytəkin ZEYNALOVA, Özbəkistan və naxçıvan mətbəxində folklor elementləri	178
22	Nazmina ABDISAMETOVA, Qorabuloq shevasida qo‘llanadigan idish-tovoq va uy anjomlari nomi	180
23	Mohlaroyim IZZATOVA, Folklor adabiyotining milliy tafakkur taraqqiyotidagi o‘rni	183

2-sho‘ba. O‘ZBEK SHEVALARI TADQIQOTLARI

1	Samixon ASHIRBOYEV, 20-yillar matbuoti: Faxri Kamolning singarmonizm talqini 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/IYBD6338	187
2	Abdulhay SOBIROV, O‘zbek areal tilshunosligining shakllanish va rivojlanish bosqichlari 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/NDQE1005	191
3	Shukurjon NORBAYEVA, Xorazm shevalari leksikasida substrat asosli birliklar 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/EMTE8289	195
4	Ibrohim DARVISHOV, Namangan qipchoq shevalarida sinonimlar 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/OKNB2844	200
5	Mo‘minjon TURDIBEKOV, Tojikistonda o‘zbek shevalarining o‘rganilishi 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/SDAQ1466	205
6	Murodqosim ABDIYEV, Salohiddin RAXMONOV, Chandir shevasining ba’zi grammatik xususiyatlari xususida (Pastdarg‘om tumani Chandir qishlog‘i misolida) 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/DHJ12368	209
7	Jo‘ra XUDOYBERDIYEV, Y.D.Polivanov va o‘zbek shevashunosligining ayrim masalalari	212
8	Alisher UBAYDULLAYEV, Qipchoq lahjasiga mansub ayrim qarindoshlik terminlarining lingvistik tahlili 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/YMZR8354	219
9	Navro‘z RAXMONOV, Qipchoq shevalarini o‘rganishning yangi bosqichi 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/YMGU2063	223
10	Zoxira XIDRALIYEVA, Iqon shevasiniung o‘zbek adabiy tili va ayrim o‘zbek shevalariga munosabati	225
11	Baurjan SAYFULLAYEV, O‘zbek va qozoq til kontaktlari natijasida shakllangan toshkent qozoq shevasining lingvistik tahlili	228
12	Zilola TILLABAYEVA, Samarqand viloyati qarluq shevalarida o‘zlashma qatlam va bilingvizm masalalari 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/GKIU1258	236
13	Vaziraxon ALIMBEKOVA, Adabiy tildagi lakuna va sheva leksikasi munosabati	239
14	Muattarxon TURDIXO‘JAYEVA,	243

O'ZBEK VA QOZOQ TIL KONTAKTLARI NATIJASIDA SHAKLLANGAN
TOSHKENT QOZOQ SHEVASINING LINGVISTIK TAHLILI

LINGUISTIC ANALYSIS OF THE TASHKENT KAZAKH DIALECT, FORMED AS A
RESULT OF UZBEKISTAN AND KAZAKH LANGUAGE CONTACTS

Baurjan SAYFULLAYEV,

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

Qozoq tili va adabiyoti kafedrası dotsenti v.b.,

f.f.d. (PhD), ORCID OD: 0009-0006-0963-7472

10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/IDGQ8503

Annotation. *This article provides a comprehensive and systematic scientific analysis of the phonetic, lexical, and grammatical features of the Tashkent Kazakh dialect. The study examines the speech characteristics of the Kazakh population living in Uzbekistan, with particular attention to the linguistic changes that have emerged as a result of long-term language contact with the Uzbek language.*

The article also analyzes phonetically specific phenomena characteristic of the dialect — such as sound alternation, assimilation, reduction, and diphthongization — on a scientific basis. In the lexical layer, units borrowed from the Uzbek language and their semantic and phonetic adaptation are revealed. From the grammatical perspective, the variability of morphological forms, the specific use of affixes, and the formation of new grammatical models under the influence of language contact are substantiated.

The results of the research are of significant scientific importance for determining the regional linguistic identity of the Tashkent Kazakh dialect, explaining dialectological and sociolinguistic processes, and enriching the theory of language contact.

Key words: *Tashkent Kazakh dialect, dialectology, phonetic features, lexical features, grammatical features, language contact, interference, convergence, Uzbek and Kazakh languages, areal linguistics, sociolinguistics.*

Til – millatning eng asosiy belgisi, uning ijtimoiy hayoti va madaniy taraqqiyotida hal qiluvchi ahamiyatga ega vositadir. Har bir xalqning milliy o'zligi, dunyoqarashi va madaniy merosi, avvalo, uning tilida, til boyliklarida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham tilshunoslikning muhim sohalaridan biri bo'lgan dialektologiya fanida turli hududlarda yashovchi etnik guruhlarining til xususiyatlarini o'rganish dolzarb masala hisoblanadi.

Qozoq tili turkiy tillar oilasining qipchoq guruhiga kiradi va u qadimdan keng hududlarda tarqalgan bo'lgani bois, unda turli hududiy shevalar shakllanib kelgan. Shevalarning paydo bo'lishi, bir tomondan, qabila va urug'larning turli geografik hududlarda yashashi, ikkinchi tomondan, tarixiy ko'chish va qo'shnichilik munosabatlari bilan chambarchas bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasi qozoq shevalarining o'rganilishi bir nechta sabablarga ko'ra dolzarbdır. Birinchidan, bu shevalar qozoq tilining tarixiy taraqqiyoti va turkiy tillarning o'zaro aloqalarini yoritishda muhim manbadır. Ikkinchidan, shevalarning lingvistik xususiyatlari adabiy til normalarini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Uchinchidan, o'zbek va qozoq xalqlari o'rtasidagi ko'p asrlik qo'shnichilik va madaniy aloqalar natijasida yuzaga kelgan o'zaro ta'sirni ilmiy asosda tadqiq etish bugungi globallashuv davrida tilning milliy qiyofasini saqlashda katta ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston hududida istiqomat qiluvchi mahalliy qozoqlar tiliga oid qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lib, ular mazkur tilning dialektologik, leksik, fonetik va morfologik



xususiyatlarini har tomonlama yoritishga xizmat qiladi. Jumladan, T.Aydarov tomonidan e‘lon qilingan bir qator maqolalar, shuningdek, uning “Қазақ тілінің лексикалық ерекшеліктері” [Айдаров 1975:4] hamda “Лингвистикалық география” [Айдаров 1977:5] nomli monografiyalari O‘zbekiston qozoqlari tilining leksik tarkibi va hududiy tarqalishini ilmiy asosda tahlil etishga bag‘ishlangan. Ushbu asarlarda til birliklarining areal xususiyatlari, ularning shakllanish omillari va qo‘llanish doirasi chuqur o‘rganilgan.

Shu bilan birga, Y.Abduvaliyevning “Қазақ тілінің Ташкент говорындағы фонетика-морфологиялық ерекшеліктері” [Абдувалиев 1967:3] nomli tadqiqot ishi Toshkent shevasida kuzatiladigan fonetik va morfologik o‘ziga xosliklarni tizimli ravishda yoritadi. Mazkur tadqiqotda tovush tizimidagi o‘zgarishlar, grammatik shakllarning variativligi hamda ularning nutq jarayonidagi namoyon bo‘lishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Qoraqalpog‘iston Respublikasining Qo‘ng‘irot tumani hududidagi qozoq dialektini o‘rganishga bag‘ishlangan I.Quttimuradovning “Қарақалпақстан Республикасы Қоңырат ауданындағы қазақ диалекті” [Куттымуратова 2018:7] mavzusidagi dissertatsiyasi ham alohida ahamiyatga ega. Unda mazkur hududda yashovchi qozoq aholisining nutqiy xususiyatlari, dialektal belgilar va ularning shakllanishida ijtimoiy-hududiy omillarning roli keng yoritilgan.

Bundan tashqari, B.Sayfullayev tomonidan 2024-yilda himoya qilingan “O‘zbek va qozoq tillari kontaktining badiiy adabiyotdagi xususiyatlari (O‘zbekiston Respublikasi qozoq adiblari asarlari misolida)” [Sayfullayev 2024:2] mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishi ikki til o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni badiiy matnlar asosida tahlil etishi bilan ajralib turadi. Mazkur ishda til kontaktining leksik, uslubiy va semantik jihatlari, shuningdek, badiiy ifoda vositalarida namoyon bo‘ladigan lingvistik sintez masalalari chuqur o‘rganilgan.

Umuman olganda, qayd etilgan tadqiqotlar O‘zbekiston qozoqlari tilining fonetik, morfologik, leksik hamda adabiy-badiiy xususiyatlarini tizimli va kompleks tarzda tahlil qilish imkonini beradi. Ayniqsa, o‘zbek tili bilan uzoq muddatli va uzviy til kontakti natijasida yuzaga kelgan lingvistik o‘zgarishlar, o‘zaro ta’sir, interferensiya va konvergensiya jarayonlarini aniqlashda ushbu ilmiy ishlar muhim nazariy va amaliy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningdek, mazkur tadqiqotlar natijalari nafaqat mintaqaviy dialektologiya va umumiy tilshunoslik uchun, balki til tarixi, areal lingvistik hamda sotsiolingvistik yo‘nalishlarida ham muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Ular orqali O‘zbekiston hududida yashovchi qozoq tilining taraqqiyoti, madaniy-lingvistik merosi va identifikatsiya jarayonlarini chuqurroq anglash imkoniyati yaratiladi. Shu jihatdan, ushbu ilmiy ishlar nafaqat nazariy, balki amaliy va madaniy ahamiyatga ega bo‘lgan muhim tadqiqotlar sirasiga kiradi.

Bizning ushbu kichik tadqiqotimiz Toshkent qozoq shevasining fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarini tizimli va ilmiy nuqtai nazardan o‘rganishdir. Shu maqsadda biz shevaning o‘ziga xos fonetik, leksik va morfologik tuzilishini aniqlashga alohida e’tibor qaratdik.

Toshkent qozoq shevasi O‘zbekistonning poytaxti va uning atrofidagi hududlarda shakllangan bo‘lib, asosan o‘zbek tili bilan yaqin til kontakti natijasida o‘ziga xos lingvistik xususiyatlarni rivojlantirgan.

Toshkent qozoq shevasi nafaqat til kontakti va mintaqaviy madaniyat ta’sirini aks ettiruvchi noyob lingvistik fenomen sifatida qiziq, balki sheva o‘rganilishi orqali turli lingvistik jarayonlar – til kontaktlari, sozlash va morfologik o‘zgarishlarni ham chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi. Ushbu tadqiqot shevaning fonetik, leksik va morfologik jihatlari ilmiy asosda tizimli yoritish va kelajakda kengroq korpusli tadqiqotlar uchun nazariy poydevor yaratish imkonini beradi.

Aytish joizki, O‘zbekiston hududidagi qozoq shevalarining fonetik, leksik va morfologik xususiyatlari tilshunoslikda alohida tadqiqot obyekti sifatida o‘rganiladigan dolzarb masalalardan biri sifatida e’tirof etiladi. Ushbu shevalar mintaqaviy va ijtimoiy-kultural omillar ta’sirida shakllangan bo‘lib, ular nafaqat qadimiy qozoq tili elementlarini saqlab qolgan, balki o‘zbek tili bilan doimiy til kontakti natijasida yangi lingvistik xususiyatlar bilan boyigan. Shu sababli, har bir

shevaning fonetik tizimi, lugʻat boyligi va morfologik tuzilishi alohida tahlil qilinishi zarur boʻlib, bu tadqiqotlar tilning tarixiy rivojlanishi, kontakt lingvistika va shevalararo farqlarni aniqlash uchun muhim ilmiy maʼlumot beradi.

Toshkent qozoq shevasini oʻrganish bugungi kunda lingvistik tadqiqotlar hamda ijtimoiy-gumanitar tahlil nuqtai nazaridan yuqori darajadagi dolzarblikka ega. Avvalo, mazkur yoʻnalishdagi izlanishlar mintaqaviy fonetik xilma-xillikni aniqlash, dialektal qatlamlarning hududiy tarqalishini belgilash hamda dialektologik xaritalash ishlarini ilmiy asosda amalga oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, shevalararo fonetik, prosodik va artikulyatsion tafovutlarni tizimli ravishda tahlil qilish orqali tilning ichki differensial xususiyatlari va ularning shakllanish mexanizmlarini aniqlash mumkin boʻladi.

Xususan, Toshkent qozoq shevasiga xos boʻlgan fonetik hodisalar — tovush almashinuvi, reduksiya, assimilatsiya, choʻzilish va urgʻu tizimidagi oʻziga xosliklar — ushbu hudud nutqining alohida lingvistik profilini belgilaydi. Talaffuz normativlari va prosodik xususiyatlarning oʻziga xosligi esa nafaqat nutqning fonetik strukturasi, balki kommunikativ jarayondagi ekspressivlik va pragmatik maʼnolarni ifodalashda ham muhim rol oʻynaydi. Shu jihatdan, Toshkent shevasi materiallari asosida olib boriladigan tadqiqotlar mintaqaning lingvistik identitetini aniqlash va tavsiflash uchun mustahkam nazariy hamda empirik asos yaratadi.

Bundan tashqari, mazkur shevani oʻrganish til kontaktlari nazariyasi doirasida ham alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, Toshkent hududida qozoq va oʻzbek tillarining uzoq muddatli va uzviy aloqasi natijasida yuzaga kelgan fonetik va prosodik oʻzgarishlar interferensiya, transfer hamda konvergensiya jarayonlarini kuzatish imkonini beradi. Bu esa oʻz navbatida ikki til oʻrtasidagi oʻzaro taʼsir mexanizmlarini aniqlash, ularning nutq amaliyotida qanday namoyon boʻlishini koʻrsatish hamda til tizimidagi dinamik oʻzgarishlarni ilmiy asosda izohlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, Toshkent qozoq shevasini tadqiq etish sotsiolingvistik jihatdan ham muhimdir. Mazkur sheva orqali til va jamiyat oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlik, xususan, tilning ijtimoiy funksiyalari, til egalari identifikatsiyasi, bilingvizm va diglossiya holatlari kabi masalalarni chuqur oʻrganish mumkin. Natijada, ushbu tadqiqotlar nafaqat nazariy tilshunoslik, balki amaliy yoʻnalishlar, jumladan, taʼlim, til siyosati va madaniy merosni saqlash sohalari uchun ham muhim ilmiy asos yaratadi.

Umuman olganda, Toshkent qozoq shevasini kompleks oʻrganish mintaqaviy dialektologiya, areal lingvistika va til kontaktlari nazariyasini rivojlantirishga xizmat qilishi bilan birga, Oʻzbekiston hududidagi qozoq diasporasining lingvistik va madaniy oʻziga xosligini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Dolzarblikning ikkinchi muhim jihati bevosita til tarbiyasi va taʼlim jarayoni bilan bogʻliqdir. Toshkent qozoq shevasining fonetik xususiyatlarini aniqlash va ilmiy asosda tavsiflash orqali umumiy oʻrta hamda oliy taʼlim muassasalarida fonetik materiallarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan integratsiyalash imkoniyati kengayadi. Bu esa oʻquvchilarda toʻgʻri talaffuz koʻnikmalarini shakllantirish, shevalararo fonetik tafovutlarni anglash hamda mintaqaviy lingvistik ongini rivojlantirishda muhim omil boʻlib xizmat qiladi. Ayniqsa, fonetik jihatdan aniq va tizimli ishlab chiqilgan oʻquv materiallari oʻquvchilarning nutq kompetensiyasini normativ va funksional jihatdan boyitadi, ularning kommunikativ salohiyatini oshiradi hamda adabiy til meʼyorlarini ongli ravishda egallashga yordam beradi.

Shu bilan birga, sheva tadqiqotlari tilni saqlash va rivojlantirish, lingvistik madaniyatni yuksaltirish hamda hududiy fonetik variantlarni ilmiy asosda korpuslash jarayonida muhim nazariy va amaliy manba vazifasini bajaradi. Xususan, sheva materiallarini raqamlashtirish, ularni lingvistik korpuslar tarkibiga kiritish va tizimli tahlil qilish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayon esa oʻz navbatida fonetik birliklarning variativligini, ularning qoʻllanish chastotasi va funksional xususiyatlarini chuqurroq oʻrganish imkonini beradi.

Y. Abduvaliyevning “Қазақ тілінің Ташкент говорындағы фонетика-морфологиялық ерекшеліктер” nomli nomzodlik dissertatsiyasi Toshkent viloyatida istiqomat qiluvchi qozoqlar nutqidagi fonetik va morfologik xususiyatlarni tizimli ravishda tavsiflashga bag'ishlangan [Абдувалиев 1967:3]. Tadqiqot natijalariga ko'ra, mazkur hududdagi qozoqlarning etnik tarkibi rang-barang bo'lib, u yerda Ulug' juz tarkibiga kiruvchi (*қаңлы, шанышқылы, үйсін, сіргелі, жалайыр, дулат*) urug'lari; O'rta juzga mansub (*арғын, қыпшақ, қоңырат, найман*) urug'lari; shuningdek, Kichik juz tarkibidagi (*рабадан*) va boshqa urug'lar istiqomat qiladi. Muallif qayd etishicha, qadimdan ushbu urug'larning ayrim qismi o'troq hayot tarzini kechirgan bo'lsa, boshqalari keyingi davrlarda ko'chib kelgan.

Abduvaliyev turli tarixiy-iqtisodiy omillarni hisobga olgan holda, aholi yashash jarayonining bosqichlari, ularning o'zbeklar bilan aralash yoki alohida qishloq tarzida istiqomat qilishi, mahalliy matbuotning mavjudligi yoki yo'qligi, shuningdek, qozoq bolalarining ona tilida ta'lim olishi yoki olmasligi kabi omillarga tayangan holda, Toshkent hududidagi mahalliy aholi nutqini uch guruhga ajratadi.

Birinchi guruh qadimdan o'troq hayot tarziga ega, farzandlari o'zbek tilida ta'lim oladigan, qozoq tilida tuman miqyosidagi bosma nashr mavjud bo'lmagan Yangiyo'l, Kalinin, O'rta Chirchiq, Bo'ka va Oqqo'rg'on tumanlarining ayrim aholi punktlari hamda shaharlarda istiqomat qiluvchi qozoqlar nutqini o'z ichiga oladi.

Ikkinchi guruhga Yuqori Chirchiq, Quyi Chirchiq, Parkent va Bo'stonliq tumanlarida, shuningdek birinchi guruhga mansub hududlarda o'zbeklar bilan aralash holda yashab, farzandlari qozoq maktablarida ta'lim oladigan qozoqlar nutqi kiradi.

Uchinchi guruh esa Yuqori Chirchiq, Quyi Chirchiq va Bo'stonliq tumanlarida 1962 yilgacha qozoq tilidagi gazeta faoliyat yuritgan, bugungi kunda ham bor va farzandlari qozoq maktablarida ta'lim olgan qozoqlar nutqini qamrab oladi.

Bundan tashqari, Toshkent qozoqlari nutqi 1968-yilda Sh.Saribayev rahbarligida dialektologik atlas tuzish maqsadida tashkil etilgan ekspeditsiya materiallari asosida ham o'rganilgan. Ushbu dala tadqiqotlari natijalari S.Omarbekov va N.Junisov tomonidan ilmiy maqolalarda tahlil qilingan bo'lib, Toshkent hududidagi qozoqlar nutqining fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari keng yoritilgan.

Mazkur tadqiqotlar asosida Toshkent shevasining qozoq tilining boshqa shevalariga nisbatan o'ziga xos fonetik xususiyatlari aniqlangan:

1. Unli tovushlar tizimi: Toshkent shevasida adabiy tilimizdagi unli tovushlarga qo'shimcha ravishda, ayrim hududlarda *a* unlisining biroz yo'g'onlashgan (orqa qatorlashgan) varianti ishlatiladi. Shu bilan birga, *уө, үө, ий, ый* kabi diftongoyid fonemalarga qo'shimcha tarzda, so'z boshida (anlaut pozitsiyasida) *yo, ye, йэ* ko'rinishidagi diftongoyidlar ham uchraydi.

2. Undoshlar tizimi: *ж* o'rnida *дж* affrikatasi, *ш* o'rnida esa palatal xarakterdagi *щ* fonemasi qo'llanadi (masalan: *ащы – әшші – әтші*).

Qattiq *k* undoshi so'z boshida izchil ravishda jarangli *g* bilan almashadi. Bu hodisa asosan arab va eron tillaridan o'zlashgan so'zlarda uchraydi (masalan: *гүнә, гүмән, гүә*). Biroq S.Omarbekov tadqiqotlarida bu jarayon tub qozoq so'zlarida ham keng tarqalganligi ko'rsatiladi (*гәмпір – кемпир, гәүле – кеүле*).

3. Unli almashinuv: Arab va eron tillaridan o'zlashgan so'zlarda tor *e* unlisining o'rnida keng *ə* unlisining ishlatilishi kuzatiladi. Masalan: *көм – кәм, кәсәл – кәсәл, мектеп – мектеп, мәмләкәт – мәмләкәт*. Bu hodisa Toshkent shevasining o'zbek tiliga uzoq muddatli va intensiv til kontakti natijasida shakllanganligini ko'rsatadi.

4. Jarangli *z* undoshi: Arab va eron tillaridan o'zlashgan so'zlarda jarangli *z* undoshi asosan saqlanadi (masalan: *ғаз – қаз, ғайрат – қайрат, ғам – қам*). Shu bilan birga, so'z o'rtasida *z* ning tushib qolishi natijasida cho'ziluvchan unli tovushlar paydo bo'ladi (*қанәәт – қанағат, жәмәәт – жамағат*).

5. *h* undoshi: So'z boshida араб-эрон manbali *h* undoshi ishlatiladigan so'zlar Toshkent shevasida ko'pincha tushib qoladi. Masalan: *асирет* – *қасирет*, *эжи* – *қажы*, *эжэт* – *қажет*. Shu jarayon natijasida cho'ziluvchan unli tovushlar ham hosil bo'ladi (*шээр* – *шаһар*).

6. Janubiy shevalarga xos fonetik jarayonlar: Burun yo'llaridagi *h* undoshi o'rnida *n* ishlatiladi (*ертең* – *ертең*, *өлең* – *өлең*, *қалын* – *қалың*). Shu bilan birga, ikkinchi shaxs shakllarida ham kuzatiladi: *келесің* – *келесін*, *барасың* – *барасын*, *студентсің* – *студентсін*.

7. *s* – *ш* almashinuvi: Ba'zi so'zlarda *s* o'rniga *ш* ishlatiladi (*маишқара* – *масқара*, *мышық* – *мысық*, *шорпа* – *сорпа*, *пешақа* – *бесақа*).

8. Orqa qator *a* unlisining torlashishi: *a* unlisining torlashib, *ə* shaklida talaffuz qilinishi keng tarqalgan va shevaning unli tovushlar tizimidagi o'ziga xosligini belgilaydi.

9. Lab undoshlarining yumshalishi:

So'z boshida jarangli *б* o'rniga qattiq *n* ishlatiladi: *ниму* – *биму*, *нәтә* – *бата*.

м o'rniga *б* ishlatiladi: *бәйрам* – *мейрам*, *небере* – *немере*.

п o'rniga *у* yumshatiladi: *тауған* – *тапқан*, *шаудым* – *шаптым*, *сеуген* – *сепкен*.

Mazkur fonetik jarayonlarning aksariyati Toshkent qozoq shevasida o'zbek tili bilan uzviy til aloqalari natijasida yuzaga kelganligini ko'rsatadi. Bu jarayonlar hudud nutqining areal va tarixiy kontekstini ochib beradi hamda lingvistik kontakt nazariyasi nuqtai nazaridan ahamiyatga ega bo'ladi. O'zbek va qozoq tillari orasidagi tarixiy va ijtimoiy-madaniy munosabatlar, shuningdek, doimiy muloqot va qo'shni etnik guruhlar bilan integratsiya, Toshkent shevasining fonetik xususiyatlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Toshkent qozoq shevasi fonetik jihatdan o'ziga xos va sistematik xususiyatlarga ega bo'lib, bu xususiyatlar mintaqaviy lingvistik identitetni saqlash va mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Masalan, unli tovushlarning assimilyatsiyasi, undoshlarning yumshashishi va talaffuzning o'zbek tilidan qisman o'tishi kabi jarayonlar shevaning fonotaktik strukturasi bilan uzviy bog'liq. Shu bilan birga, bu fonetik fenomenlar areal lingvistik kontekstda Toshkent shevasining boshqa qozoq shevalaridan farqlanishini ta'minlaydi va hududiy o'ziga xoslikni namoyon qiladi.

Shuningdek, bu fonetik o'ziga xosliklar nafaqat tarixiy va ijtimoiy faktorlar bilan, balki psixolingvistik va sotsiolingvistik jarayonlar bilan ham bog'liq. Mahalliy aholining til madaniyati, ko'chma va qishloq aholisi bilan aloqalari, shuningdek, o'rta maktab va boshqa ta'lim muassasalarida o'zbek tiliga oid ta'limning davomiyligi, sheva fonetik tizimining saqlanishi va o'zgarishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Endigi masala Toshkent qozoq shevasining leksik xususiyatlariga bag'ishlanadi. Leksik tizim – har qanday shevaning eng sezilarli identifikatsion elementi bo'lib, u hududning tarixiy, ijtimoiy va madaniy kontekstini aks ettiradi. Toshkent qozoq shevasida uchraydigan so'z boyligi nafaqat qozoq tilining umumiy leksik fondiga, balki o'zbek tili bilan yuzaga kelgan intensiv kontakt natijalariga ham bog'liq [Sayfullayev 2024:2].

Toshkent qozoq shevasi, O'zbekiston hududida shakllangan alohida mintaqaviy lahja sifatida, o'zining leksik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Leksik xususiyat tilshunoslikda sheva yoki lahjaning ko'p uchraydigan, semantik jihatdan ahamiyatli birliklari sifatida tavsiflanadi. Bu birliklar orqali tilning mintaqaviy rang-barangligi, so'z boyligi va semantik o'ziga xosligi aniqlanadi.

Mazkur leksik xususiyatlarni tadqiq etishda ularni mavzuiy guruhlariga ajratish samarali bo'ladi. Misol tariqasida quyidagi guruhlarini ko'rsatish mumkin: qarindosh-urug' va shaxs nomlari; oziq-ovqat mahsulotlari va ularga aloqador atamalar; kiyim-kechak nomlari; obyektning belgi-xususiyatlarini yoki imkoniyatini ifodalovchi leksik birliklar; narsa, qurol, taqinchoq va uy-ro'zg'or buyumlarini nomlash; payt va o'rin semasini ifodalovchi so'zlar; shaxs va unga xos xususiyatlarni bildiruvchi atamalar; fan, siyosat, tartib-intizom sohalariga tegishli leksik birliklar; tabiat hodisalari va qush nomlari; shuningdek, belgi, miqdor, daraja va ta'mni bildiruvchi so'zlar v.h.

Boshqa mavzuiy guruhlarga nisbatan, **leksik xususiyatlar guruhi** ancha murakkab va qiziqarli bo'lib, ular nutqning semantik boyligini, mintaqaviy o'ziga xosligini va madaniy tafovutlarni aks ettiradi. Shu bois, Toshkent qozoq shevasidagi leksik xususiyatlarni o'rganish nafaqat tilshunoslik, balki mintaqaviy etnolingvistik va madaniy tadqiqotlar uchun ham dolzarb hisoblanadi.

Toshkent qozoq shevasining **o'ziga xos leksik xususiyatlariga** doir bir necha misollarni ko'rib chiqaylik. Ushbu shevada ishlatiladigan so'zlarning ko'plari o'zbek tilidan o'zlashgan bo'lib, talaffuzi va ma'nosi jihatidan adabiy qozoq tilidan farq qiladi. Masalan, mahalliy qozoqlar tilida *шақ (бўтақ), қошны (көрші), пәтір (ашыт-пай жепқан жұқа нан), долы (бұршақ), қам (шикі), пақса (балшық), нам (ам, есім), кәрәм (капуста)* so'zlari o'zbek tilida *shoh, qo'shni, patir, do'l, xom, paxsa, nom, karam* turida aytiladi.

Mazkur leksik birliklar Toshkent shevasining o'zbek tili bilan uzoq muddatli til aloqalari natijasida shakllanganligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ular shevaning leksik boyligini oshirib, mintaqaviy nutqning o'ziga xos identitetini saqlashda muhim rol o'ynaydi.

Ushbu misollar shuni ham ko'rsatadiki, Toshkent qozoq shevasida o'zbek tili bilan intensiv kontakt nafaqat leksik qabul qilish jarayonini, balki talaffuz va semantik variantlarni ham shakllantirgan. Shu bois, leksik xususiyatlarni o'rganish nafaqat tilshunoslik, balki mintaqaviy madaniy va etnolingvistik tadqiqotlar uchun ham dolzarbdir.

Toshkent qozoq shevasi – O'zbekiston poytaxti va atrof hududlarda yashovchi qozoq aholisi orasida shakllangan dialekt bo'lib, u adabiy qozoq tilidan ayrim yuqoridagi fonetik, leksik xususiyatlari singari grammatik xususiyatlari bilan ham ajralib turadi. Mazkur sheva o'zining ko'p asrlik O'zbek bilan til kontakti natijasida o'ziga xoslikka ega bo'lgan. Grammatik xususiyatlar, xususan, morfologiya va sintaksis jihatidan Toshkent qozoq shevasining o'ziga xosligini aniqlash tilshunoslik tadqiqotlari uchun muhim ahamiyatga ega.

Toshkent qozoq lahjasida uchraydigan grammatik xususiyatlar hudud aholisining o'zbek tili bilan yaqin va doimiy muloqotda bo'lishi, shuningdek, o'zbek aholisi orasida uzoq yashashi natijasida shakllangan [Sayfullayev 2024:2]. Bundan tashqari, hududda fors tili va o'zbek tilining tarixiy ta'siri ham seziladi. Ushbu lahjada quyidagi grammatik xususiyatlar ajralib turadi.

1. Qozoq adabiy tilida ishlatiladigan ko'plik qo'shimchalari – **-лар, -лер, -дор, -дер, -тар, -тер** o'rniga, Toshkent lahjasida o'zbek tilidagi “**э**” tovushining erkin va har qanday holatda ishlatilishidan kelib chiqadigan **-лэр, -дэр, -тар** shakllari ustunroq qo'llaniladi. Masalan: **түшпаралар, мәктәптәр, мәмләкәттәр, кәрәм-дәр**.

2. Eron va Tojik tillaridagi ayrim fe'llar bu hududdagi aholi tilida mustaqil fe'l shaklida ishlatilmay, balki qo'shimcha vazifasida qo'llanib, **-бын, -бін** (masalan, *тамашабін – жағымпаз, палбын – бал ашушы*) va **-баз** (masalan, *қартабаз қарташы, ішкілікбаз – ішкіш*) shakllarida ishlatiladi.

3. Toshkent qozoq lahjasida quyidagi qo'shimchalar orqali so'zlar hosil qilinadi, ular adabiy til va boshqa shevalarda uchramaydi. Masalan:

-кеш: *мейнеткеш* (mehnatkash), *әзілкеш* (hazilkash), *пәскеи* (kichik, mayda), *жанжалкеш* (janjalkash)

-қор, -хор: *тегінқор* (parazit), *адамқор* (odam o'ldiruvchi), *қанқор* (qon ichuvchi)

-дар, -тар: *айыптар* (aybdor), *шаруадар* (shorvador), *пұлдар* (boy), *өнімдар* (meva, hosil), *хасылдар* (mevali), *заттар* (asli naslli)

-паз: *кәуәппаз* (shashlik tayyorlovchi), *мантпаз* (manti tayyorlovchi)

-хак/қан: *кітапқан* (kitob o'quvchi), *газімхан* (gazeta o'quvchi)

Bu qo'shimchalar adabiy tilda mavjud bo'lsa-da, Toshkent lahjasida ular orqali yangi so'zlar hosil qilish, ularni keng qo'llash xususiyati mavjud bo'lib, boshqa shevalarda uchramaydi.

4. Ushbu hududga Eron–Tojik tilidagi qo'shimchalarning ustun ishlatilishi xosdir. Yangi so'zlar hosil qiluvchi bunday qo'shimchalarga quyidagilar kiradi:

- ана, -ене:** айыбана (ayb haqi), қайбана (begona), кейуана (kempir)
- анда, -енде:** пезенде/паханда (ustoz oshpaz), газенде (buzoq), паренде (qush), қоренде (oshxona ishchisi), қушанда (qurt va chumolilarni o'ldiruvchi)
- дан:** білімдан (bilimli)
- мен, -ман:** касалман (kasallik bilan og'rgan)
- зар:** алмазар (olma bog'i), алуазар (olcha bog'i), гүлзар (gul o'sadigan joy), талзар (daraxt bog'i), жүзімзар (uzum bog'i).

Bu qo'shimchalar orqali Toshkent lahjasida adabiy til va boshqa shevalarda uchramaydigan yangi so'zlar yaratiladi.

Eron-Tojik prefikslarining keng qo'llanilishi ham Toshkent qozoqlari tilini boshqa qozoq shevalaridan ajratib turadi. Aytish joiz, prefikslar qozoq adabiy tilida uchramaydi. Masalan:

сер-: сермазмун (mazmunli), серсақол (saqolli).

пеш-: пешқадам (oldingi qatorli).

бади-: бадбәшарә (so'qir, shaklsiz), баджәһил (g'azabchi, asabiy).

ным-, ним-: нымжан (zaif).

Shuningdek, ushbu hududda **-бе, -би, -ба, -на** prefikslari ham juda faol ishlatiladi. Masalan, бемезгил, бейрұқсат, бетәртин, нахақ.

6. Fe'ling hozirgi zamondagi qo'shimchasi Toshkent qozoq lahjasida boshqa qozoq shevalaridan farq qiladi. Ushbu qo'shimcha **отыр, тұр, жатыр, жүр** kabi yordamchi fe'llarning **-ын, -ін** shakllarida ko'makchi fe'l sifatida ishlatilib, hozirgi zamon ma'nosini bildiradi. Masalan, у ravishdosh shaklida joylashib, so'zlashuvda hozirgi zamon ma'nosida qo'llaniladi.

7. Qozoq adabiy tilidagi va boshqa shevalardagi **-рыз, -гиз, -қыз, -ғыз** kabi o'zgelik fe'l shakllari Toshkent lahjasida turli fonetik o'zgarishlarga uchraydi va quyidagi shakllarga aylanadi: **-газ, -гез, -қаз, -кез**. Masalan: *тургазу* → *тұрғызу, отыргазу* → *отырғызу, көргезу* → *көргізу, өткезу* → *өткізу*.

8. Qozoq adabiy tilida kelajak zamon ishini hosil qiluvchi **-мақ** qo'shimchasi Toshkent qozoqlari tilida faqat fe'l hosil qiladi. Masalan: *Біз Ташкентте оқымақтамыз* → *Біз Ташкентда о'qimoqdamiz, Заман жақсы болмақта* → *Замон yaxshi bo'lmoqda*

Ushbu grammatik xususiyatlar Toshkent qozoq lahjasining o'zbek tili bilan uzoq muddatli kontakt natijasida shakllanganligini ko'rsatadi va hududiy shevalararo farqlarni aniqlashda muhim manba hisoblanadi.

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Toshkent qozoq shevasi o'zining fonetik, leksik va morfologik xususiyatlari bilan qozoq tilining boshqa hududiy variantlaridan sezilarli darajada farqlanadi hamda alohida mintaqaviy lingvistik tizim sifatida namoyon bo'ladi. Shevaning shakllanishi va rivojlanishida O'zbekiston hududidagi ko'p asrlik ijtimoiy-madaniy muhit, ayniqsa, o'zbek tili bilan uzviy va uzoq muddatli til kontakti hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qilgan.

Fonetik jihatdan Toshkent qozoq shevasida tovush almashinuvi, assimilyatsiya, reduksiya, diftonglashuv, undoshlarning yumshashuvi va ayrim fonemalarning tushib qolishi kabi jarayonlar faol kuzatiladi. Ushbu hodisalar nafaqat shevaning ichki fonologik tizimini belgilaydi, balki uning areal xususiyatlarini ham yoritib beradi. Ayniqsa, o'zbek tiliga xos artikulyatsion va prosodik elementlarning singishi natijasida yuzaga kelgan fonetik o'zgarishlar shevaning o'ziga xos fonetik profilini shakllantirgan.

Leksik qatlamda esa o'zbek tilidan o'zlashgan birliklar salmoqli o'rin egallaydi. Bu o'zlashmalar nafaqat semantik jihatdan moslashgan, balki fonetik va morfologik jihatdan ham qayta ishlangan holda faol qo'llaniladi. Natijada Toshkent qozoq shevasining lug'at boyligi kengayib, uning mintaqaviy va etnolingvistik identiteti yanada mustahkamlangan.

Grammatik (morfologik) tizimda kuzatiladigan variativlik, affikslarning o'ziga xos qo'llanishi, shuningdek, fors-tojik va o'zbek tillari ta'sirida yuzaga kelgan yangi so'z yasovchi modellarning shakllanishi shevaning dinamik va ochiq tizim ekanligini ko'rsatadi. Ayniqsa, prefikslarning faolligi, o'zlashgan qo'shimchalar asosida yangi birliklarning hosil qilinishi hamda fe'l shakllaridagi o'zgarishlar til kontaktining chuqur va ko'p qatlamli ekanligini tasdiqlaydi [Sayfullayev 2024:2].

Toshkent qozoq shevasining fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari alohida-alohida tadqiqot sifatida ham chuqur ilmiy o'rganishni talab etadi. Chunki har bir daraja mustaqil lingvistik tizim sifatida o'ziga xos qonuniyatlarga ega bo'lib, ularni batafsil tahlil qilish shevaning umumiy tabiatini yanada to'liqroq ochib berishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, Toshkent qozoq shevasi turli lingvistik jarayonlar — interferensiya, konvergensiya va transfer hodisalarining jonli namunasidir. Ushbu shevani kompleks o'rganish nafaqat dialektologiya, balki areal lingvistika, sotsiolingvistika va kontakt lingvistika kabi yo'nalishlar uchun ham muhim ilmiy xulosalar beradi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari kelgusida Toshkent qozoq shevasini korpuslash, raqamlashtirish va zamonaviy lingvistik metodlar asosida chuqurroq tahlil qilish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida, mintaqaviy til merosini saqlash, uni ta'lim tizimiga integratsiya qilish hamda yosh avlodning lingvistik madaniyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ashirboyev S. Areal lingvistika. – Toshkent: Bookmany print, 2023. – B. 66.
2. Sayfullayev B.N. O'zbek va qozoq tillari kontaktining badiiy adabiyotdagi xususiyatlari. – Toshkent, 2025. – 150 b.
3. Абдувалиев Ю. Қазақ тілінің Ташкент говорындағы фонетика-морфологиялық ерекшеліктер. Филол.ғылым.конд. ...дисс. – Ташкент. 1967. – 285 б.
4. Айдаров Т. Қазақ тілінің лексикалық ерекшеліктер. – Алматы: Мектеп, 1975. – 184 б.
5. Айдаров Т. Лингвистикалық география. – Алматы: Мектеп, 1977, – Б.144.
6. Қалиев Ғ., Сарыбаев Ш. Қазақ диалектологиясы. – Алматы: Мектеп, 1967. – Б. 97-101.
7. Қуттымуратова Ы.А. Қорақалпоғистон Республикаси Қўнғирот туманидаги қозок шеvasи: филол.фан.бўйича.фалсафа доктори (PhD) дисс. автореферати. – Нукус, 2018. – 21 б.